

“JINOYAT OBYEKTI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL”**Kutlimuratova Dilfuza Sharjau qizi***Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada jinoyat tarkibi hisoblangan jinoyat obyekti uning mazmun – mohiyati, tushunchasi va turlari keng tahlil qilinadi. Shuningdek jinoyatni kvalifikatsiya qilishda jinoyat obyekti o'rnini haqida hamda uning nazariy va amaliy tahlili ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Jinoyat obyekti, umumiy obyekt, maxsus obyekt, bevosita obyekt, ijtimoiy munosabatlar.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida jinoyat huquqining samarali amal qilishi bevosita jinoyat tarkibiy qismlari, xususan, jinoyat obyekti to'g'risidagi bilimlarning aniqligi va ravshanligiga bog'liq. Jinoyat obyekti jinoyat huquqining nazariy asoslaridan biri bo'lib, jinoyatning ijtimoiy xavfliligini belgilashda va jinoyat-huquqiy baholashda markaziy o'rin tutadi. Jinoyat huquqining amaldagi tizimida jinoyat tarkibini to'g'ri aniqlash va unga yuridik baho berish jinoyat obyekti tushunchasiz mumkin emas. Ayniqsa, jinoyat obyekti ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, bu munosabatlarning muhofazasi davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham jinoyat obyekti mavzusining chuqur organilishi huquqni qo'llash amaliyotida xatolarning oldini olish, odil sud qarorlarini qabul qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda jinoyatchilikning shakl va usullari tobora murakkablashib borayotgan bir paytda aynan qaysi ijtimoiy munosabatga tajovuz qilinganini aniqlash - ya'ni jinoyat obyekti haqidagi tushunchani to'g'ri qo'llash jinoyatga huquqiy baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jinoyat obyekti asosida jinoyat turlarini tizimlashtirish, ularni ajratish va tegishli sanksiyalarni qo'llash imkoniyati paydo bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi doirasida jinoyat obyekti bo'yicha olib borilayotgan nazariy izlanishlar va amaliy tajriba jinoyat huquqining rivojlanishida asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Shuning uchun bu mavzuni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonunining vazifalari belgilangan. Bu vazifalarga shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoyat tajovuzlardan himoya qilish, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash kiradi. Ko'rinib turganidek, ushbu modda jamiyatni jinoyat qonuni orqali himoya qilish maqsadida bir qancha ijtimoiy xavfli qilmishlar ro'yxatini o'z ichiga olgan. Jinoyat huquqida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar jinoyat obyekti

hisoblanadi. Jinoyat huquqi fanining Umumiy qismida jinoyat tarkibining bir elementi sifatida, Maxsus qismida esa muayyan jinoyat tarkibining zaruriy elementi sifatida obyekt belgilarini o'rganish jinoyat qonunchiligini qo'llash amaliyotida muhim ahamiyatga ega. ⁸JKning 2-moddasida ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati jihatidan izchil ro'yxati keltirilgan. Biroq muayyan vaqt oralig'ida mavjud bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarning hammasi ham jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinmagan. Aksariyat ijtimoiy munosabatlar huquqning boshqa sohalari bilan himoya qilinadi va tartibga solinadi. Masalan, shartnoma taraflari o'rtasidagi munosabatlar fuqarolik huquqi, ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlar mehnat huquqi doirasida tartibga solinadi. Shunday qilib, JK jinoyat-huquqiy vositalar yordamida tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasini belgilaydi. JKning 2-moddasi birinchi qismida bir qancha muhim ijtimoiy munosabatlarning taxminiy ro'yxati keltirilgan. Ushbu ro'yxatning to'liq shaklini aniqlash uchun JK Maxsus qismi barcha moddalarini tahlil qilib chiqish lozim. Bunday tahlil jinoyat-huquqiy muhofaza obyektini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar doirasini aniqlashga xizmat qiladi. Ammo jinoyat obyekti mazkur ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan muayyan qilmish sodir etilgan vaqtda aniqlanadi. Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi o'zgaruvchan xarakterga ega. U jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida ro'y beradigan turli holatlarga mos ravishda o'zgarib turadi. Jinoyat obyektini aniqlash jinoyat-huquqiy vositalar bilan himoya qilish zarurati tug'ilgan yangi ijtimoiy munosabatlarga muvofiq ravishda aniqlanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimi rivojlanishi natijasida bu sohadagi munosabatlarni ham jinoyat-huquqiy vositalar orqali himoya qilish obyektiv zaruratga aylandi. Jinoyat kodeksida axborotlashtirish to'g'risidagi qoidalarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan edi. Kelgusida axborot texnologiyalari sohasidagi munosabatlarni jinoyat-huquqiy jihatdan muhofaza qilishning ahamiyati oshganligi sababli JKga ⁹“XX¹ - Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” bo'limi kiritildi. Shu bilan axborot texnologiyalarining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar jinoyat-huquqiy vositalar orqali himoya qilinadigan obyekt sifatida belgilandi. Jinoyat obyektini huquq tarmog'i sifatida jinoyat huquqi predmeti bilan chalkashtirmaslik kerak. Bu ham ijtimoiy munosabat hisoblanadi. Ammo bu ijtimoiy munosabat muayyan jinoyat sodir etgan shaxs bilan davlat o'rtasida vujudga keladi. Bu bevosita jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan jinoyat huquqiy munosabat predmeti hisoblanadi. Jinoyat obyektini huquq normasi bilan ham chalkashtirmaslik kerak. Demak, jinoyat obyekti - bu jinoyat huquqi doirasida qonun bilan qo'riqlanadigan va jinoyat sodir etish natijasida zarar ko'radigan ijtimoiy munosabatdir. Har bir jinoyat o'z mohiyatiga ko'ra, jamiyatda mavjud bo'lgan muayyan ijtimoiy qadriyatlarga tahdid soladi, ularni buzadi yoki izdan chiqaradi. Mana shu tajovuz qilingan ijtimoiy qadriyat yoki munosabat jinoyat obyekti deb ataladi. U jinoyat tarkibining to'rt asosiy elementidan biri hisoblanadi va jinoyatni huquqiy

⁸ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22.09.1994-yil. <https://lex.uz/docs/-111453>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22.09.1994-yil. <https://lex.uz/docs/-111453>

baholashda muhim rol o'ynaydi. Jinoyat obyekti deganda – O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar (shaxsning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi bilan bog'liq munosabatlar) majmui tushuniladi. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi natijasida, ushbu ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaziladi yoki shunday zarar yetkazish real xavf ostida qoladi. Ijtimoiy munosabatlar bu - insonlar o'rtasidagi ularning hayotiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan muayyan aloqalardir.

Bu ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish deganda:

- shaxsning huquq va erkinliklariga;
- jamiyat va davlat manfaatlari;
- tabiiy muhitga;
- tinchlikka;
- insoniyat xavfsizligiga tahdid solinishi nazarda tutiladi.

Jinoyat obyektining ahamiyati:

➤ obyekt jinoyat tarkibining zaruriy elementi hisoblanib, JK maxsus qismi moddasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lishi;

- sodir etilgan jinoyatda obyekt bo'lmasa, u jinoyat sifatida tan olinmasligi;
- jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga xizmat qilishida ifodalanadi.

Jinoyat obyekti turlari va jinoyatning boshqa belgilari bilan o'zaro bog'liqligi.

- Jinoyat obyekti:
- Umumiy obyekt;
- Maxsus obyekt;
- Bevosita obyekt turlariga bo'linadi.

¹⁰Umumiy obyekt deb - jinoyat qonuni bilan jinoiy tajovuzlardan himoya qilinadigan barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisiga aytiladi. Agar Maxsus qismning barcha moddalari tahlil qilinadigan bo'lsa, ijtimoiy munosabatlarning to'liq ro'yxati yig'indisi ko'rinishida jinoyat-huquqiy muhofaza qilinadigan umumiy obyekt paydo bo'ladi. Maxsus obyekt deb - jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mohiyatlari bo'yicha bir-biriga o'xshash yoki yaqin bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy munosabatlar guruhiga aytiladi. Maxsus obyekt JK Maxsus bo'limidagi jinoyat-huquqiy normalarni tasniflash imkonini beradi. Maxsus obyekt JK Maxsus bo'limi tuzilmasini shakllantirish bo'lim va boblarga ajratishning asosiy mezonini hisoblanadi. (masalan: JK Maxsus qismi 1-bobi "Hayotga qarshi jinoyatlar" deb nomlanib, ushbu bob 97-103-moddalarni o'z ichiga oladi. Ushbu moddalarda ko'rsatilgan jinoyatlarning barcha turlarida shaxsning hayoti, ya'ni uning yashashga bo'lgan huquqi obyekt hisoblanadi. Demak, bob nomida maxsus obyekt ko'rsatib o'tilganligini anglash mumkin bo'ladi).

Jinoyatning bevosita obyekti deganda - ijtimoiy xavfli bosqinchilik qilinayotganda bevosita bosqinchilik qaratilgan ijtimoiy munosabat tushuniladi. Jinoiy jinoyat sodir

¹⁰ Rustambayev M.X. Uzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy kism/M. Rustambayev. Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. - 784 b.

etilishi natijasida ushbu ijtimoiy munosabat bevosita zarar ko'radi, bevosita obyekt JK Maxsus qismining har bir moddasida ko'rsatib o'tiladi.

Bevosita obyekt ham o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi.

- Asosiy bevosita obyekt;
- Qo'shimcha bevosita obyekt;
- Fakultativ bevosita obyekt.

Bevosita obyektning bunday bo'linishi - jinoiy bosqinchilik bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha obyektga qarshi qaratilgan bo'lsagina ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday tasnif nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ikki obyektli jinoyatlarda zarar asosiy obyektidan boshqa obyektga ham yetkazilib, u qo'shimcha bevosita obyekt hisoblanadi. Asosiy bevosita obyekt deb - ijtimoiy xavfli tahdid bevosita qaratilgan, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi (masalan: JK 164-moddasi "Bosqinchilik" da asosiy bevosita obyekt - boshqa shaxsning mulk huquqi hisoblanadi). Ushbu obyektga qarshi qaratilgan jinoiy tajovuzning mavjud emasligi – ushbu jinoyat JK 164-moddasi tarkibining mavjud emasligini anglatadi. Qo'shimcha bevosita obyekt deb asosiy bevosita obyekt bilan bir vaqtda tajovuzga uchraydigan jinoyat qonuni bilan himoya qilinadigan yana bir ijtimoiy munosabatlarga aytiladi (masalan: JK 164-moddasi "Bosqinchilik" da qo'shimcha bevosita obyekt - shaxsning hayoti yoki sog'lig'i hisoblanadi. Ya'ni aybdor mol-mulkni talon-toroj qilishda mulkdorning mulkiy huquqlariga tajovuz qilish bilan birga uning hayoti yoki sog'lig'iga ham zarar yetkazadi). Qo'shimcha bevosita obyekt murakkab tarkibli jinoyatlarda mavjud bo'lib, boshqa jinoyat tarkibidan ajratishda muhim ahamiyatga ega va har doim asosiy bevosita obyekt bilan birgalikda ishtirok etadi. Fakultativ bevosita obyekt deb asosiy bevosita obyekt bilan bir vaqtda ijtimoiy xavfli zo'ravonlikka duchor bo'lish yoki duchor bo'lmaslik mumkin bo'lgan jinoyat qonuni bilan himoya qilinadigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi (masalan: JK 277-moddasi "Bezorilik" da – o'zganing mulk huquqi fakultativ obyekt bo'lib kelishi mumkin. Ya'ni aybdor asosiy bevosita obyekt hisoblangan. Ijtimoiy tartibdan tashqari boshqa shaxslarning mulkiy huquqlariga ham zarar yetkazishi yoki zarar yetkazmasligi mumkin). Fakultativ obyekt - shunday ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyat sodir etilganda unga zarar yetkazilishi ham, yetkazilmasligi ham mumkin. Bu holat esa jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi, faqat javobgarlik va jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Jinoyat obyektining noto'g'ri aniqlanishi oqibatlari: kvalifikatsiya xatolari va oqibatlari

Jinoyat obyektini aniqlash nima uchun muhim hisoblanadi ya'ni Jinoyat obyektini aniqlash - bu jinoyat orqali qaysi ijtimoiy munosabatga zarar yetkazilganligini aniqlashdir. Jinoyat tarkibining eng muhim elementlaridan biri obyekt hisoblanadi, chunki jinoyat huquqi ana shu ijtimoiy munosabatlarni himoya qilishga qaratilgan. Agar jinoyat obyektini noto'g'ri aniqlansa, jinoyatning: turi, og'irlik darajasi, tegishli modda yoki qismi, jazosi noto'g'ri belgilanadi. Kvalifikatsiya xatosi - bu jinoyat huquqiy bahosining noto'g'ri qo'yilishi bo'lib, sodir etilgan jinoyatga taalluqli bo'lmagan modda,

noto'g'ri band yoki qism qo'llanilgan holat hisoblanadi. Bu holatlarning asosiy sababi - jinoyat tarkibi elementlari, xususan, obyektning noto'g'ri aniqlanishi hisoblanadi. Jinoyatni noto'g'ri kvalifikatsiya qilish - jinoyatga noto'g'ri modda, qism yoki bandni qo'llash. Bunday xatolik, odatda, jinoyat obyektini noto'g'ri tushunish yoki uni yuzaki baholash natijasida yuzaga keladi. Bunday xatolar quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi. Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi noto'g'ri baholanadi. Natijada jinoyatchiga yengilroq yoki og'irroq jazo tayinlanadi. Jabrlanuvchining huquq va manfaatlari yetarli darajada himoya qilinmaydi. Adolat prinsiplariga zid holat yuzaga keladi va sud qaroriga bo'lgan ishonch kamayadi. Jinoyat statistikasi noto'g'ri shakllantiriladi, bu esa kriminologik tahlil va jinoyatchilikka qarshi kurashish tadbirlarini rejalashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qonun buzilishining oldi olinmaydi, chunki jinoyat mazmuni to'g'ri ochib berilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat obyekti jinoyat tarkibining muhim elementi hisoblanib uni aniqlash va u haqida nazariy va amaliy bilimga ega bo'lish bu sodir etilgan jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun jinoyat obyektini to'g'ri aniqlash - jinoyatni huquqiy jihatdan to'g'ri baholash, adolatli jazo tayinlash va ijtimoiy munosabatlarni samarali himoya qilishning asosi hisoblanadi. Bu jinoyat-huquq nazariyasi va amaliyotida eng muhim talab hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22.09.1994-yil. <https://lex.uz/docs/-111453>
 2. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi (umumiy qism) oily o'quvlari uchun darslik. T.: - "ILM ZIYO" – 2005.
 3. Rustambayev M.X. Uzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharxlar. Umumiy kism/M . Rustambayev. - Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. - 784 b.
 4. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T., "Yangi asr avlodi" 2010.
 5. Ochilov X.R. Jinoyat huquqi. Uliwma bólim. - Tashkent: Yuridikalıq ádebiyatlar baspası, 2022.
- Foydalangan elektron adabiyotlar:
1. <https://lex.uz>
 2. <https://tsul.uz/uz/page/elektron-kutubxona>
 3. <https://academy.uz/oz/page/ilmiy-nashrlar>